



ISSN 3030-380X

20
№5

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Международный научно-методический журнал

PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION

International Scientific Methodological Journal

№ 5 2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK
Rayosatining 2024-yil 7-iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va
psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy
maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:

TILAVOV MUXTOR HASAN O'G'LI

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Eko Sri Margianti - Gunadarma universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Xamidov Obidjon Xafizovich- Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Axmedov Murodjon Ubaydullayevich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Oriyental universiteti rektori.

Salixov Saidamir Alisher o'g'li - iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Toshkent shahridagi Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti, Toshkent filiali fakultet rahbari

Paxrudinov Shukriddin Ilyosovich – siyosiy fanlar doktori, professor. Oriyental universitening "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasi professori.

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna - Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Oriyental universitening "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasi professori.

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi mudiri)

Ostanov Shuhrat Sharifovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti)

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti)

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi)

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi mudiri)

Hamroyev Alijon Ro'zqulovich- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri)

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlanтирish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish bo'limi boshlig'i)

Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich - pedagogika fanlari doktori, professor (Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori)

Axmedov Murodjon Ubaydullayevich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Oriental universiteti Rektori)

Ibraymov Asqar Esbosinovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Elektron ta'lim bo'limi boshlig'i)

Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Buxoro davlat universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshligi)

Radjabov Dilshod Zaripovich - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi mudiri)

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti)

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi o'qituvchisi

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2024-yil 26-mart № 245685 -sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna	Oilada ota-onas psixologiyasi rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	130
Hotamova Maftuna Madatovna	Zamonaviv ta'lif yondashuvlari asosida o'quvchilarda ingiliz tili savodxonligi darajasini rivojlantirish metodikasi	134
Matniyozova Marhabo Abdug'apporovna	Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	143
Ulug'ova Shahlola Musliddinovna	Iqtisidiy o'zgarishlarning tadbirdor shaxsi faoliyatiga ta'siri	147
Ahmedova Mohira Sultonboyevna	Uyushmagan yoshlar ijtimoiy moslashuvining psixologik determinantlari	152
PEDAGOGIKA		
Soatov Asadulloh Jabborovich	Ma'lumotlarni eslab qolishda assotsiativ usullardan foydalanishning mnemonik ahamiyati	156
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li	Koping strategiyalarining pedagoglardagi frustratsion tolerantlikka ta'siri	161
Saparova Shahlo Ramazonovna	Elbek va sadriddin ayniy asarlaridan foydalaniib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari	166
Asrorova Saodat Abdullo qizi	Talabalarning kasbiy ko'nikmalarini va mahoratini rivojlantirish yo'llari	173
Ishanova Muxayyoxon Muxtarovna	Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash - ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida	178
Atakulova Nargizaxon Alijonovna	Talabalarda sog'lom diniy dunyoqarashni rivojlantirish tizimini takomillashtirish	183
Abduraxmonova Munisa Ahat qizi	Ta'limiyl faoliyatda axborot bilan ishslash ko'nikmasini shakllantirishning psixologik aspektlari	187
Islomov Nurtoy Namoz o'gli	Ilmiy-didaktik atamalarni o'zlashtirishining psixologik komponentlari	191
G'aniyev Jamshid Husniddin o'g'li	Migratsiyaning o'smir tarbiyasi va uning ijtimoiy adaptatsion jarayoniga ta'sir etuvchi salbiy holatlari	196
Dilova Nargiza Gaybullayevna, Xojiyeva Nasiba Baxodirovna	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari	199
Temirova Iqbol Sadriddinovna	Kolloborativ yondashuv asosida adabiy va nutq kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik – psixologik imkoniyatlari	205
Jumayeva Gulnoza Tursunpo'atovna	Og'ishgan xulq determinatsiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati	212
Baxtiyorova Umida Ulug'bek qizi	Ta'lif tarbiya jarayonida yoshlarni ijtimoiy munosabatlarga moslashuvining psixologik xususiyatlari	216
Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi	Boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	221
Bakayeva Rayxon Izatovna	Kreativ fikrlash- funksional savodxonlikning muhim komponenti	225
To'yumurodova Dilnoza Dilmurodovna	Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarida o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini shakllantirishning shart sharoitlari	229
IQTISODYOT		
Sayfulloyev Oybek Olimovich	Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'naliishlari	234
Salixov Saidamir Alisher o'g'li	Mamlakat oziq - ovqat eksporti xajmini oshirishda korporativ logistikani qo'llash tamoyillari	242
FALSAFA		
Turdiyev Bexruz Sobirovich	Demokratik jamiyat rivoji va ma'naviy yangilanishlarning dialektik aloqadorligi	246
Shirinov Anvar Qanoatovich	Inson kapitali g'oyalalarining amalga oshirilishi yangi ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida	253



**"TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR"
XALQARO ILMIY METODIK JURNALI UCHUN MAQOLALARINI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

"Ta'limda istiqbolli izlanishlar" ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. "Ta'limda istiqbolli izlanishlar" ilmiy jurnali ilmiy maqolalarini o'zbek, rus va inglez tillarida chop etadi.

2. E'lon qilinadigan maqolalarga bo'lgan asosiy talablar:

❖ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;

❖ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro'yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;

❖ maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so'z) va tayanch so'zlar (8-10 ta) ingliz, o'zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to'liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo'lsa, ularning har biri haqida to'liq ma'lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko'rsatiladi. Matnda kirish qismi, taddiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e'lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o'ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo'lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarining to'liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiyo ro'yxatda ko'rsatiladi. Matn ichidagi ko'chirmadan so'ng iqtibos olingan asarning ro'yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o'rinda kitob, to'plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to'liq nomi, nashr ko'rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko'rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko'rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar "Antiplagiat" tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobjiy bo'lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma'ruzalari chop etilmaydi. E'lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko'chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o'zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matmini qisqartirish va unga tahririy o'zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

Saparova Shahlo Ramazonovna
Buxoro davlat universiteti
Sport faoliyati va Pedagogik ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi tayanch doktoranti
@gmail.com saparovashahlo243@gmail.com

ELBEK VA SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDAN FOYDALANIB BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlari va XX asrning buyuk pedagoglari Elbek va Sadriddin Ayniyning asarlari va darsliklari keltirilgan. Jumladan, Sadriddin Ayninyning "Eski maktab", "Tahzib us-sibyon", "Qiz bola yoki Xolida" asar va darsliklari, Elbekning masallari, "Armug'on", "Yolqinlar" to'plamlari kabilar. Bu asarlardan foydalanib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish samaralidir. Maqoladan pedagogika sohasidagi izlanuvchilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Sadriddin Ayniyning va Elbekning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratgan darsliklari, "Tahzib us-sibyon", "Eski maktab", "Qiz bola yoki Xolida", "Armug'on", "Yolqinlar"larda keltirilgan Elbek masallari, bu asarlarni o'qitishda metodik yondashuvlar.

Аннотация. В данной статье представлены труды и учебники современных просветителей и великих педагогов XX века Эльбека и Садриддина Айни. Например, произведения и учебники Садриддина Айни «Эски Мактаб», «Тахзеб ус-себён», «Киз Бола ёки Холида», притчи Эльбека, сборники «Армугон», «Ёлкинлар». С помощью этих произведений эффективно совершенствовать методику преподавания детской литературы. Статья может быть использована исследователями в области педагогики и учителями начальных классов.

Ключевые слова: учебники, созданные Садриддином Айни и Эльбеком для учащихся начальных классов, перечисленные в притчах Эльбека «Тахзеб ус-себён», «Эски мактаб», «Киз бола ёки Халида», «Армугон», «Ёлкинлар», методические подходы. преподаванию этих произведений.

Abstract: This article presents the works and textbooks of modern enlighteners and great pedagogues of the 20th century, Elbek and Sadriddin Ayniy. For example, the works and textbooks of Sadriddin Ayniy "Eski Maktab", "Tahzib us-sibyon", "Qiz bola yoki Xolida", Elbek's parables, "Armug'on", "Yolqinlar" collections. It is effective to improve the methodology of teaching children's literature using these works. The article can be used by researchers in the field of pedagogy and primary school teachers.

Key words: textbooks created by Sadriddin Ayniy and Elbek for primary school students, listed in "Tahzib us-sibyon", "Eski maktab", "Qiz bola yoki Xolida", "Armug'on", "Yolqinlar" Elbek's parables, methodical approaches to teaching these works.

Mavzuning dolzarbliji. XX asr boshlari o'zbek adabiyoti o'zining boy va sermazmun sahifalariga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon singari iste'dodli shoir va yozuvchilar Yangi o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ydilar. Xalq og'zaki ijodi, jahon adabiyotining badiiy-estetik tajribalari asosida vujudga kelgan bu adabiyot paydo bo'lgan kundan boshlab xalqqa yetuk asarlar taqdim qila boshladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan yozuvchi va shoirlar jahon adabiyotida mavjud roman, hikoya, qissa, drama, tragediya singari janrlarda o'zlarini sinab ko'rdilar. XX asrning 20-30-yillarida adabiyot maydoniga yangi-yangi ijodkorlar kirib keldilar. Oybek, Elbek, G'afur G'ulom kabilar shular jumlasidandir.[3]

Jadid ma'rifatparvari Mashriq Yunusov – Elbek (1898-yil, Toshkent, O'zbekiston 1938-yil Magadan, Rossiya) pedagogik merosining salmoqli qismini o'quvchilarga bag'ishladi. Elbek

1917-yildan darsliklar yoza boshlagan, til-imlo masalalari va pedagogika ishlariga qiziqqanligi uchun bu to‘g‘rida maqola va asarlar yozgan. Manbalardan aniqlanishicha, Elbek «Sovg‘a» alifbe darsligi (1921-yil, Toshkent), adabiyot fanidan «Armug‘on» nomli o‘quv kitobi, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari uchun «O‘zbekcha o‘qish kitobi» (1922-yil, Toshkent), «Boshlang‘ich maktabda ona tili» nomli o‘qituvchilar uchun maxsus o‘quv qo‘llanmasi (1924-yil, Toshkent) darsliklarini yozgan. Shuningdek, uning F.Sayfiy bilan hammualliflikda yozilgan birinchi kitob, birinchi o‘qish yili uchun (60 bet), ikkinchi kitob, ikkinchi o‘qish yili uchun (100 bet), uchinchi kitob, uchinchi o‘qish yili uchun (56 bet), «Go‘zal yozg‘ichlar. Xrestomatiya. Boshlang‘ich maktablarning to‘rtinch bo‘limlari uchun o‘qish kitobi» (Toshkent, Turkdavlashr, 1924-yil, 86 bet), ikkinchi nashri 3-bosilishi (1925-yil, 108 bet), «O‘rnak» boshlang‘ich maktablarning uchinchi bo‘limlari uchun o‘qish kitobi (Toshkent, 1925-yil), “Xrestomatiya” birinchi yil uchun 2-nashri (92 bet); ikkinchi yil uchun (98 bet); uchinchi yil uchun, 2-nashri (91 bet), to‘rt bo‘limdan iborat «Bilim» boshlang‘ich maktablar uchun o‘qish kitobi (Toshkent, 1930-yil) kabi darsliklari mavjud. “Bilim” darsligi «Libknext» tajriba maktabining o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tuzilgan bo‘lib, u to‘rt bo‘limdan iborat, uning birinchi bo‘limi birinchi yil uchun (48 bet), ikkinchi bo‘limi ikkinchi yil uchun (64 bet), uchinchi bo‘limi uchinchi yil uchun (248 bet), to‘rtinch bo‘limi to‘rtinch yil uchun (368 bet) mo‘ljallangan.

Uning «Kuchsizlar dunyosi», «Qaysi biri bo‘ri?», «Itlarning o‘rtoqligi», «Quyon bilan Toshbaqa», «Ikki tulki», «Ot bilan odam», «Chumoli va chivin», «Sholi bilan kurmak», «Qora qushlar va Toshbaqalar», «Jinning olov yoqishi», «Kampirning tovuqlari», «Ola qarg‘a va Qurbaqa», «Yer bilan tog‘ o‘rtasida» kabi bir qator masallari bo‘lib, ulardan o‘z o‘rnida ham foydalangan. U 1924-yilda «Go‘zal yozg‘ichlar» darsligini yozib, Toshkentda chop ettirdi. Ushbu darslik til va adabiyot masalalariga bag‘ishlangan. 1924-yil nashr etilgan «Go‘zal yozg‘ichlar» darsligining hajmi 86 sahifa bo‘lsa, 1925-yildagi nashri esa 108 sahifadir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pedagoglik va darsliklar yozish Elbek faoliyatining asosini tashkil qilgan. Uning «Yozuv yo‘llari» (1924-y., 10 ming nusxa, Toshkent), «O‘rnak», «Boshlang‘ich maktabda ona tili», «O‘qish kitobi», «Adabiyot xrestomatiyasi» singari darsliklari o‘z davrida maktablarda asosiy qo‘llanma bo‘lib, ularning har biri bir necha martadan nashr etilgan.

Elbek yaratgan har bir darslik va qo‘llanmada eng avvalo davr ruhi aks etgan. Ularda sinflar bo‘limlarga bo‘linib, oddiydan murakkabga qarab boradi. Bunga misol qilib, 1925-yil Toshkentda «O‘zdavnashr» tomonidan bosib chiqarilgan boshlang‘ich maktablarning 1, 2 va 3-sinflari uchun tuzilgan «O‘rnak» deb nomlangan o‘qish kitobini olish mumkin. Uning birinchi yil uchun (1-sinflar uchun) tuzilgan «O‘rnak» o‘qish kitobi 87 sahifadan iborat bo‘lib, 12 qismdan tashkil topgan. Birinchi bo‘lim 9, ikkinchi bo‘lim 6, uchinchi bo‘lim 5, to‘rtinch bo‘lim 20, beshinchi bo‘lim 9, oltinchi bo‘lim 12, yettinchi bo‘lim 5, sakkizinchi bo‘lim 4, to‘qqizinchi bo‘lim 5, o‘ninch bo‘lim 3, o‘n birinchi bo‘lim 2, o‘n ikkinchi bo‘lim 5 bo‘limni o‘z ichiga oladi. Bularga birinchi sinf o‘quvchilarining ruhiyatiga mos holda matnlar tanlangan: ular maktab, uy, oila, jonivorlar, qo‘ylar, sog‘likni saqlash yo‘llari, fasllar, o‘simliklar, ma’danlar va kashshoflar bo‘limlariga ajratilib, bular tarkibida o‘quvchilarga maktab va unda ishlataladigan asboblar bilan tanishtirish uchun matnlar berilgan.

Elbek 1921-yil 30 sahifa hajmida 2-4 sinflar o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun «Yozuv yo‘llari» nomli qo‘llanma chop ettirdi. «Kirish» va «So‘ng so‘z»dan tashqari 11 saboqni o‘z ichiga olgan bu qo‘llanma maktab o‘quvchilari va ona tili o‘qituvchilari uchun to‘g‘ri yozuv, imlo bo‘yicha ancha puxta va ilmiy-uslubiy jihatdan muhim asar edi.

Elbekning o‘qituvchilar uchun yozgan «Boshlang‘ich maktabda ona tili» (1923 yil) nomli qo‘llanmasi o‘qituvchilar uchun ilmiy-uslubiy dastur vazifasini o‘tadi.[12]

Yana bir mashhur jadid ma‘rifatparvari va pedagog Sadriddin Ayniy (1878-yil, Buxoro, O‘zbekiston - 1954-yil, Dushanbe, Tojikiston) «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan yangi milliy maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») o‘qish darsligini tuzgan bo‘lib, u ikki marta (1909; 1917-yillarda) nashr etilgan. «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy-didaktik rakterda ega bo‘lib, o‘quv materiallari bolalarga qiziqarli sodda tilda bayon etilgan, ular

mazmuni o'quvchilar yoshiga mos. O'sha zamon sharoiti va talablariga ko'ra, kitobda diniy ma'lumotlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» darsligida muallif, bolalarни rostgo'y va vijdonli bo'lishga targ'ib qiladi. Bolaning shakllanishida oila tarbiysi muhim o'rinni tutadi. Muallif bir hikoyada namuna usulidan foydalanib, o'quvchilar hayotida ro'y bergan voqeasi misolida o'quvchilarni halol bo'lishga undash bilan birga, bunda oila tarbiysi, onanining namunasi katta o'rinni tutishini ko'rsatib beradi. Quyida ushbu hikoyadan parcha keltiramiz: «Bir kuni Tosh ismli bola maktabdan qaytayotganida o'tkinchi kishi qopchig'ini tushirganini ko'rdi, uni olib uyiga keldi va onasiga ko'rsatdi. Onasi achchiqlanib aytdi: «Buning egasini tezroq top va unga qopchiqni qaytar, aks holda o'rtoqlaring orasida seni o'g'ri deb e'lon qilaman». Tosh qopchiq egasini topib, uni puli bilan qaytarib berdi».

XX asr boshida darslik yaratgan pedagoglar, ziyolilar darsliklardagi matnlarni o'z hayotiy tajribalaridan olganlar. Hikoya, rivoyat singari she'r va to'rtliklar ham bitib, darsliklarga kiritganlar. Jumladan, Sadriddin Ayniy ham «Tahzib us-sibyon» darsligining «Aqli bola» bobida bolalarni sahiylik ruhida tarbiyalovchi she'r yozadi.

Muallif «Tarbiya ko'rgan bola», «Yaxshi, odobli bola» boblarida yoshlikdan o'quvchilarda madaniy xulqni qaror toptirish, har bir o'quvchining tozalikka rioya qilishi lozimligi haqida fikr yuritadi.

Bundan tashqari, darslikda axloqiy tarbiya, ota-onani hurmatlash to'g'risida fikr yuritilib, ushbu yo'naliishda yuksak badiiy saviyaga ega bo'lgan savol-javob shaklidagi she'r taqdim etilgan. S.Ayniy oilada mehr-oqibat yuqori darajada bo'lishini xohlaydi. Darslikda insonparvarlik ruhidagi hikoyalar bilan bir qatorda, estetik tarbiya va o'zin faoliyati bilan bog'liq qisqa-qisqa matnlar ham berilgan.

«Tahzib us-sibyon» keng qamrovli darslik hisoblanib, unda barcha fanlar, ularning inson hayotidagi o'rni beqiyosligi haqida fikr bayon qilinadi. Muallif har bir bola o'zi o'qish va yozishni bilishi shart deb hisoblaydi. Darslikda bolalar hayoti, tabiat, məktəb, uy hayvonlari va parrandalarga oid bolalarning yoshiga mos qiziqarli hikoyalar mavjud.

Sadriddin Ayniy kitobda o'qituvchilar uchun metodik yo'l-yo'riqlar ham taqdim etgan bo'lib, darslikning ayrim boblari o'qituvchi va uning vazifalariga bag'ishlangan.

“Tahzib us-sibyon” Sharq adabiy maktabi an'analari ta'sirida vujudga kelgan badiiy – axloqiy asardir. Ustodning ushbu kitobi Shayx Sa'diyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarlarini xotirga keltiradi. Shunday gapni asarning g'oyaviy yo'naliishi va ifoda tarzi xususida ham aytish joizdir. “Tahzib us-sibyon”da nasru nazmga birday munosabatning yetakchilik qilishi ham o'shanday xulosaga kelish asosini beradi. Asarda imkon qadar ixcham va sodda fikr yuritishga harakat qilinadi. Bayon qilingan tarbiyaviy fikrlar mitti hikoyalar guvohligida mustahkamlanadi.

Qiroat kitobining “Tarbiya ko'rgan bola”, “Odobli bola”, “Ustoz – muallim”, “Marhamatli Ahmadjon” sarlavhalari ostida kelgan maqolachalari ham sodda bayoni, ixchamligi bilan diqqatni tortadi. “Aqli odam va baland baxt sohibi” sarlavhasi ostida kelgan voqealardan so'ng mana bu to'rtlik “bayt” ishorasi bilan keltiriladi:

Oqil on boshad, ki o' shokir buvad,
V – on gohe bar nafsi xud qohir buvad.
Har ki xashmi xud furo' xo'rd, ey javon,
Boshad o' az rostkoroni jahon.

Ravshan bo'layotirki, “Aqli odam” va “Aqli odam va baland baxt sohibi”, “Tahzib us-sibyon” tarkibida mustaqil bir “asarchalar” maqomida kelgan va ular o'zining pishiq g'oyaviy – badiiy tuzilishiga ega. Ko'chirganimiz she'riy qatorlar o'sha “asarcha”lardan birining xulosasi vazifasini ado etmoqda. Muallif nigohida oqillik shukru sabru qanoat bilan go'zaldir”.

Ayni chog'da u Ismoil Gaspiralining “Xo'jai sibyon” (“Bolalar muallimi”) va Mahmudxo'ja Behbudiyning “Kitobat-ul atfol” (“Bolalar kitobi”) darsliklaridan ilhomlanib, shuningdek, “Chor kitob” hamda Shayx Sa'diyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher

Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarlariga xos an’analardan ijodiy foydalanib, 1910-yilda “Tahzib us-sibyon” darsligini yaratgan.

S.Ayniyning «Tahzib us-sibyon» darsligidan tashqari, «Yoshlar tarbiyasi» darsligini 1909-yilda chop etganligi ma’lum.

Shuningdek, Sadriddin Ayniy Samarqandga kelib, Abduqodir Shakuriy yangi milliy maktabining ta’lim-tarbiya ishlari bilan tanishdi. Ana shu ma’lumotlar va tajribalar asosida S.Ayniy do’sti Mirzo Abdulvohid Munzim bilan uning hovlisida yangi tipdagi tojik maktabi ochdi.

Birinchi tojik alifbesi «Soli naxustin» («Birinchi yil», Baroyi maktabxoyi tojik, Samarqand, 1924y.)da adibning «Maktab nima» she’ri bor. Ushbu darslikdan A.Shakuriyning maktabida birinchi bosqich o‘quvchilariga saboq berilgan. Pedagogning 1930-yilda chop etilgan «Chalasavodlar maktabi uchun o‘qish kitobi» darsligi ham mavjud.

1922-yil S.Ayniy qizlar maktabi uchun «Qiz bola yoki Xolida» darsligini tuzdi. Uni 1924 yil Munzim yordami bilan Berlinda «Komviyoniy» shirkatining bosmaxonasida nashr qildirdi.[12]

Mavzuning ilmiy yangiligi. Elbek va Sadriddin Ayniy xalqimizning erki uchun kurashib, shu yo’lda fido bo‘lgan asl farzandlaridandir. Ularning she’riy va nasriy ijodi ham shakl, ham mazmun jihatidan rang-barang va boydir. Qolaversa, ularning muallimlik va tarbiyachilik faoliyati o‘zbek milliy maktabi taraqqiyoti, ayniqsa, milliy axloq-odob muammolari bilan bog‘liq dolzarb masalalarni hal etishda o‘ziga xos nazariy ahamiyatga ega. Binobarin, ilk marta Ayniy va Elbek yaratgan darsliklari, ularning o’tkir metodist muallimligi yaxlit monografik tarzda o‘rganilmoqda.[3]

Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar. Bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasi ilmining obyektini oliy ta’limning bakalavriat bosqichi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining bolalar adabiyoti darslari, deya ko‘rsatish mumkin.

Jadid ma’rifatparvarlarining asarlaridan foydalanib bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mumkin. Ayniqsa, Sadriddin Ayniy va Elbek, o‘zlarining asarlarida xalq an’alarini, tarixiy voqealarni va ijtimoiy qadriyatlarni yoritib, bolalarga ta’lim berishda muhim rol o‘ynaydigan asarlar yaratgan. Quyidagi metodik yondashuvlar ularning asarlarini o‘qitishda qanday qilib samarali qo’llash mumkinligini ko‘rsatadi:

1. Asarlarni o‘quvchiga yoshiga mos bo‘lishi:

Sadriddin Ayniyning “Eski muktab” asarini bolalar uchun soddallashtirilgan va qisqartirilgan variantlarda taqdim etish mumkin.

“Qiz bola yoki Xolida” asari esa bolalarning axloqiy tarbiyasiga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishda foydalanish uchun mos keladi.

Elbekning “Go‘zal yozg‘ichlar” asari bolalar uchun qiziqarli va tushunarli hikoyalar va she’rlar bilan boyitilgan.

“Armug‘on” “Yolqinlar” to‘plamlari bolalarga adolat, do’stlik va haqiqiy qadriyatlarni o‘rgatish uchun yaxshi namunadir.

2. Jonli o‘qish usullarini tatbiq etish:

Dramatizatsiya: Sadriddin Ayniy asarlaridan qisqa sahnalarini sahnalashtirish, masalan, “Eski muktab” asaridan qisqa epizodlarni o‘ynash. Bu bolalarga qissa mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

O‘qish va Bahslashish: Ayniy asarlarini o‘qib, bolalar bilan mazmuni va mavzulari bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish.

Rasm chizish: Elbekning masallaridan ilhomlanib, bolalarga rasm chizdirish. Masalan, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa” masalidagi sahnalarini rasmga tushirish.

Rolli o‘yinlar: Elbek masallaridagi qahramonlarni o‘ynash, bolalarga turli ijtimoiy vaziyatlarni his qilish imkoniyatini yaratadi.

3. Tarixiy va madaniy kontekstni o‘rgatish

Tarixiy Kontekst: S.Ayniy asarlarini o‘qitishda O‘zbekistonning Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani Suktare qishlog‘i tarixiga oid ma’lumotlarni berish. Masalan, “Eski muktab” qissasida aks etgan tarixiy voqealarni tushuntirish.

Madaniy qadriyatlar: S.Ayniy asarlarini tahlil qilib, undagi madaniy va axloqiy qadriyatlarni bolalarga tushuntirish.

Elbek asarlarini o'qishda uning madaniy va an'anaviy elementlarini tanitish. Misol uchun, "Kuchsizlar dunyosi" masalidagi xalq an'analari va urf-odatlarni tushuntirish.

4. Interaktiv usullarni qo'llash

Savol-javob o'tkazish: S.Ayniy asarlarini o'qib, bolalarga savollar berish. Masalan, "Eski maktab"dagi qahramonlarning qiyinchiliklari haqida savollar berish va muhokama qilish.

Muzokaralar: Ayniy asaridagi mavzular, masalan, do'stlik va adolat, bo'yicha bolalar bilan ochiq muhokamalar o'tkazish.

Guruhi bilan ishlash: Bolalarni kichik guruhlarga bo'lish va ular bilan Elbek masallaridagi muhim mavzularni muhokama qilish.

5. Ijodiy Faoliyatlar

Yozish Vazifalari: Bolalarga Sadriddin Ayniy asarlaridan ilhomlanib o'z hikoyalarini yozishni topshirish.

She'r yozish: Bolalarga Elbek she'riyati uslubida she'r yozishni topshirish.

Kreativ rasm chizish: Elbek asarlaridagi sahnalar asosida rasm chizish, masalan, "Yelkan bilan kema" masalidan sahnalarni tasvirlash.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Sadriddin Ayniy va Elbekning bolalar uchun yozgan asarlarni o'qish o'quvchi ma'naviyatiga katta ozuqa bersa, o'qituvchining bu asarlarning ustida ishslash uchun asar mazmuni asosda muammoli savol yoki muammoli topshiriq tayyorlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Elbekning "Olaqarg'a bilan qurbaqa" (I.A.Krilovning "Qarg'a va tulki" masalidan ijodiy ta'sirlanib yozgan) masalini oladigan bo'lsak, masalda olaqarg'a qurbaqani tutib olgach, qurbaqa olaqarg'aning ovozi chiroyligi ekanligini aytilib maqtaydi. Olaqarg'a kuylashni boshlashi bilan qurbaqa sakrab qochishi hikoyalanadi.

Muammo: Tuzoqqa tushgan qurbaqa olaqarg'adan qanday qutilishi mumkin? Yoki olaqarg'a qurbaqani qochirmasligi uchun nima qilishi kerak edi?

O'quvchilarni muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o'ylaysiz, masalda kimning ustidan kulinyapti?
2. Bu masalning tagida qanday haqiqat yashiringan bo'lishi mumkin?
3. Siz "maqtovdan erib ketib" iborasini qanday tushunasiz? Chindan ham olaqarg'a chiroyli kuylay olarmidi? Shunday hayotiy vaziyatlardan misol keltiring.
4. Qurbaqanining so'zlarini qanday izohlaysiz?
5. Olaqarg'a va qurbaqadan qaysi birining ishi siz uchun foydali deb o'ylaysiz? Nega bunday xulosaga keldingiz?

Elbek maqtanchoqlikni qoralab, sholikorlarni alqab bolalar uchun "Sholi bilan kurmak orasida" masalini yaratgan. Masalda sholi va kurmakning maqtanib, bir-biridan o'zining zo'rligini aytishi, natijada esa sholikordan olgan jazosi hikoya qilinadi.

Muammo: Sholi va kurmak kabilarning maqtanchoqligini qanday yengish mumkin? O'quvchilarni muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o'ylaysiz maqtanchoqlik bola xarakteristikasida qayerdan/nimadan kelib chiqadi?
2. Sizningcha sholikor to'g'ri ish qildimi? Sholikor timsolidagi kishi o'mida siz maqtanchoqlikni qanday usul bilan yengan bo'lardingiz?
3. Manman va kamtar insonni qanday aniqlash mumkin?
4. Sholikorlikdan xabaringiz bormi? Sholikor nimalarni yetishtirib beradi va qancha daromad topadi?

Masallarni eshitib, tinglab o'sgan har bir inson kelajakda, albatta, o'ylab, aql bilan ish ko'radi, qissadan hissa, xulosa chiqaradigan bo'ladi. Elbekning bu kabi barcha masallarini o'qib, bolalar ham, kattalar ham birdek zavqlanadi, ta'lim-tarbiyasidagi oqillik, mehnatkashlik, ota-ona, ona - vatanga, hayvonot olamiga muhabbatlilik kabi xislatlarni o'zida shakllantiradi.

Xulosa. Sadriddin Ayniy va Elbekning asarlarini bolalar adabiyotida qo'llash, asarlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bolalarga nafaqat adabiyot, balki tarixiy va madaniy qadriyatlarni ham tushuntirishga yordam beradi. Ularning asarlarini jonli o'qish, interaktiv muhokamalar va ijodiy faoliyatlar orqali o'qitish metodikasi, bolalarga adabiyot va madaniyatni qiziqarli va samarali tarzda o'rgatishga imkoniyat yaratadi.

Bolalar adabiyotini o'qitishda ustozlarimiz Bashorat Jamilova va Rahmatulla Barakayevlarning 2022-yildagi "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar adabiyotini yaxshi bilishi darkor" nomli maqolalariga murojaat qilish o'rinnlidir: "Maktabgacha ta'lim muassasalarning bo'lg'usi tarbiyachilari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy o'quv yurtida bu fanni puxta o'rganmas ekan, kichkintoylarni savodga o'rgatish yoxud boshlang'ich sinf o'qish kitoblaridagi badiiy ijod namunalarini keng tahlil qilish malakasini qanday egallaydi? Bolalar adabiyotining muhim qismi sifatida xalq og'zaki ijodi, (jadidlarning bolalar uchun yaratgan asarlari) chet el bolalar adabiyoti, ifodali o'qish, adabiy tur va janrlar haqida tushuncha beradigan tanlov fanlarga ham ehtiyoj katta. Zero boshlang'ich sinflardayoq bolalar kitobxonligini yuksak saviyaga ko'tarish uchun avvalo ularning bo'lg'usi muallimlarning aynan oliy o'quv yurtlarida o'qish fani metodikasini puxta o'zlashtirishi lozim".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amonov U.S. Armug'on yolqinlar. Toshkent: "Turon zamin ziyo" 2017.
3. Amonov U.S. O'zbek tili. Toshkent: "Muhammarr" nashriyoti. 2011.
6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407. 8.
7. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil.73-77-betlar. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_1_2023.pdf.
8. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
9. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. "Academicia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249- 7137.2020
10. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va "Buxoroyi sharif" ro'znomasi. "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar. <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>
11. Mirzayev Saydulla. XX asr o'zbek adabiyoti: darslik. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005. – 21- bet.
12. Raximov Z. "Jadid pedagogikasi" o'quv-uslubiy majmua. Shahrishabz-2022. 196 bet.
13. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'Qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>
14. Saparova Sh.R. "The classification of Elbek poems in 5 directions" ped_mahorat@umail.uz 2021-yil, dekabr. 175-bet.
15. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" Boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish: o'quv dasturi-o'qituvchi-baholash xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro-2023. 352-355-betlar
16. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek philologist, teacher, children's poet" "Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta'lim va tarbiya integratsiyasi" III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri. 2023-yil 4-may. 75-78-betlar
17. Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel.

18. Saparova Sh.R. "Both creative and teacher" Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: Zamonaiviy tendensiyalar va istiqbollar xalqaro-ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 15-may. 230-232-betlar.
19. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3289>
20. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM EducationVolume 01, Issue 10, 2023ISSN (E): 2993-2769. P-564-572
21. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature" <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584>
22. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti: darslik. – Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2019. – 428 b.
23. Saparova Sh.R. "Elbekning boshlang'ich sinf darsliklarini yaratishdagi xizmatlari" M.D. ishi. BuxDU. 2022-yil. 105-bet.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnalga maqola nashr qilganligi uchun

SAPAROVA SHAHLO RAMAZONOVNA

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

Buxoro davlat universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ta'limga istiqbolli izlanishlar
jurnalini bosh muharriri



10.08.2024
Sana